TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - dekabr 497-10-141-Q/22 Parkent tuman hokimligi

Tuman hududidagi transport vositalarini 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son 215-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, tuman hududidagi transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazishni ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Parkent ichki ishlar bo‘limining yo’l harakati xavfsizligi bo‘linmasi tuman hududidagi tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi asosan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, normalariga muvofiqligi tadbirkorlik sub’ektlari — yuridik shaxslar tomonidan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi ta’minlansin.

3. Parkent tumanida transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xafvli yuklarni tashish uchun maxsus transport

vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

d) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

e) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

f) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

Mazkur Nizomning 5-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart — 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentabr — 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar — 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2023-yilgi texnik ko‘rigini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2023-yilgi texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Parkent tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Abduxamidov) va Toshkent viloyati hokimligining Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti Parkent tuman vakiliga:

2023-yil 1-fevralga qadar yo‘llarda harakat havfsizligini ta’minlash komissiyalari bilan hamkorlikda, yuridik shaxslar rahbarlarini jalb qilgan holda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash hamda uni o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatilsin;

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida tuman ichki ishlar bo‘limi -Yo’l harakati xavsizligi bo’linmasi, mudofaa ishlari bo‘yicha tuman bo‘limi vakillari va yuridik shaxslarning muhandis-texnik hodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzilsin;

Parkent tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo’l harakati xavfsizligi bo‘linmasi bilan birgalikda faoliyati tugatilgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona va tashkilotlar tasarrufida bo‘lgan transport vositalarini, tirkamalarini, yarim tirkamalarini aniqlash hamda ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rsin;

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-sonli “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish havfsizligini ta’minlashga doir tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi qarorlari (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari, 2003-y., 21-son, 204-modda) talablari ijrosini ta’minlash, yo‘lovchilarga samarali transport xizmati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida tumandagi barcha tijorat asosida yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tasarrufidagi ishlab chiqarilgan yili 10 yildan oshgan barcha turdagi avtobus va kichik avtobuslarlarning majburiy ko‘rigi Olmaliq shaxridagi 1-sonli diagnostika tarmog‘ida o‘tkazilishini tashkillashtirilsin.

9. Tuman ichki ishlar bo‘limining tegishli xizmatlari hodimlari jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalarini to‘liq majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

10. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish javdaliga asosan avtobus va kichik avtobuslarni majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash va taqdim etish yuridik shaxslar raxbarlari va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilsin.

11. O‘rnatilgan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tmagan (ishlab chiqarilgan yiliga 15 yildan oshgan avtobus) avtobus va kichik avtobuslardan foydalanish ta’qiqlansin.

12. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, muassasa va tashkilot raxbarlari majburiy texnik ko‘rik boshlanishidan kamida 10 kun oldin viloyat Yo‘l harakati havfsizligi xizmati boshqarmasining tumanlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmasiga (TRIB) mavjud transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash uchun taqdim etilsin.

13. Yil yakuni bo‘yicha texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalari ro‘yxati yilining 1-noyabrigacha elektron va bosma shakllarda shakillantirilib, Boshqarma texnika nazorat bo‘limiga taqdim etilsin.

14. Oxirgi uch yil davomida majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalarining tasdiqlangan ro‘yxatiga asosan avtomototransport vositalari egalarining turar joy manzili bo‘yicha, fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzmagan holda, ularning roziligi bilan inventarizatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlansin va yaroqsiz deb hisoblangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ro‘yxatdan chiqarish ishlari amalga oshirilsin.

15. “Sugurta” kompaniyalari tuman bo‘limlarga, Tuman ichki ishlar bo‘limi – Yo’l harakati xavfsizligi bo‘linmasi” (D.Halilov) bilan hamkorlikda majburiy transport vositasi

sug‘urtasi to‘lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘rsin.

16. Parkent tuman “Parkent tongi” gazetasi (A.Mahmudov)ga:

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish yo‘l harakati havfsizligini ta’minlashning asosiy garovi ekanligini targ‘ib qilib borish tavsiya etilsin.

17. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

18. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Shoaxmedov**

Parkent tuman hokimining
2022 yil 1 dekabrdagi
497-10-141-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Parkent tumani xo‘jalik, korxona va tashkilotlardagi

avtotransport vositalarini 2023-yilgi texnik ko‘rigidan

o‘tkazish buyicha komissiya

TARKIBI

D. Xalilov	*Komissiya raisi,* TIIB YHXB boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

1. A. Agzamov	Tuman “Avtomotohavaskorlar” ko‘ngilli jamiyati raisi
2. N.Xolxo‘jaev	Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi hodimi
3. Sh. Shosobitov	Tuman YXPTFK muhandisi
4. E.Miryusupov	Tuman “Agrosug‘urta” xodimi
5. A.Xoltoev	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Parkent tuman inspeksiyasi boshlig‘i
6. Z. Mirxaitov	“Vatanparvar” Parkent O‘STK rahbari

Parkent tuman hokimining
2022 yil 1 dekabrdagi
497-10-141-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Korxona, tashkilot va muassasalarda davlat avtotransport vositalarini 2023-yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilotlar nomi	Tr. soni	Tir-kama soni	Texnik ko‘rik kuni	O‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi
1	”Parkent elektr tarmog‘i” korxonasi	14		03. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
2	Obodonlashtirish korxonasi	10		04. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
3	“ZERO WASTE” MCHJ	13		05. 04. 2023y	14-00	Korxona garajida
4	“Parkent tongi” gaazetasi	1		06. 04. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
5	Tuman hokimligi	8		07. 04. 2023 y	11-00	Korxona garajida
6	“Olmos” MChJ	2		10. 04. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
7	“Xilale Textieles” MChJ	2		10. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
8	“Navbaxor Shuxrat Rivoj” fx	1		11. 04. 2023 y	14-00	Korxona garajida
9	“Parkent qidiruv loyixa” MChJ	1		11. 04. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
10	Moliya bo‘limi	1		12. 04. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
11	“Sakson ota” DO‘IChK	5		13. 04. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
12	“Ibroxim plyus sifat” MChJ	1		14. 04. 2023y	11-00	Parkent YHXB
13	“Afsona Ichkiqo‘rg‘on” MChJ	1		14. 04. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
14	“Navfar “ firmasi	1		17. 04. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
15	“Parkent ATS” MChJ	15		18.04.2023 y	16-00	Korxona garajida
16	“Asliddin avto xamkor” MChJ	9		19. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
17	“Samsarak fayz” MChJ	2		20. 04. 2023y	14-00	Parkent YHXB
18	“Talant” fx	2		20.04.2023 y	16-00	Parkent YHXB
19	“Parkent avtoustoz” Sh/K	4		21. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
20	“Tursunxo‘ja” XK	2		21. 04. 2023 y	11-00	Korxona garajida
21	“Vatanparvar” O‘STK	27	1	24. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
22	Axoli bandligi ko‘maklashish markazi	1		25. 04. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
23	“Asqar trans invest” MChJ	5		25. 04. 2023 y	09-00	Korxona garajida
24	“Navbaxor Alisher ota” fx	1		26. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
25	“Parkent plyus xamkor” MChJ	3		27. 04. 2023 y	9-00	Korxona garajida
26	“Parkent” FX	1		27. 04. 2023 y	10-00	Parkent YHXB
27	“Gulbog‘ omad barakat” f/x	1		27. 04. 2023y	11-00	Parkent YHXB
28	“Tambalak” FX	3		28. 04. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
29	“Xasanboy” fx	2		28. 04. 2023y	9-00	Korxona garajida
30	“Ildiz Parkent agro” XK	3		02. 05. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
31	“Obid-ota” f/x	5		03. 05. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
32	“Ramish Laylo” fx	1		04. 05. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
33	“Ozoda med farm” MChJ	1		05. 05. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
34	“Quruvchi” IChK	13		08. 05. 2023 y	9-00	Korxona garajida
35	“Fizika-Quyosh” IIChB	6		09. 05. 2023 y	14-00	Korxona garajida
36	“Galaktika Progress” xk	2		10. 05. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
37	Chotqol Davlat biosfera qo‘riqxonasi	6		11. 05. 2023y	14-00	Korxona garajida

38	“Matanova Nazira ” dx	1		12. 05. 2023y	09-00	Parkent YXXB
39	Parkent YXPTFK	31	1	15. 05. 2023 y	9-00	Korxona garajida
40	“Telekom” OAJ Parkent filiali	2		16. 05. 2023y	9-00	Parkent YHXB
41	“Oq dul maks” dx	1		16. 05. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
42	“Yorqin plyus Kamol” fx	1		17. 05. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
43	Parkent prokuraturasi	1		17. 05. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
44	“Regionalgeologiya” DUK	74	3	18. 05. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
45	“Maxsus qurilish-3”	11		19. 05. 2023 y	9-00	Korxona garajida
46	“Qorakalpoq Abbosxon” fx	5		22. 05. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
47	“Parkent Qorasuv” ITB	4		23. 05. 2023y	9-00	Korxona garajida
48	Parkent ko‘p tarmoqli poliklinikasi	1		24.05. 2023y	9-00	Parkent YXXB
49	Parkent SEO va JS bo’limi	6		25. 05. 2023y	11-00	Parkent YHXB
50	“Me’mor” x/f	1		26. 05. 2023 y	15-00	Parkent YHXB
51	“Uz Milana” QK	5		29. 05. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
52	“Surxon Zarkent” FX	1		02. 06. 2023y	11-00	Parkent YHXB
53	“Alishox” MChJ	1		02. 06. 2023 y	15-00	Parkent YHXB
54	“Akulik” FX	2		05. 06. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
55	Soliq inspeksiyasi	1		05. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
56	“Abdumo‘min Chorvador” MChJ	1		06. 06. 2023y	9-00	Korxona garajida
57	“Agromir Zarkent”	2		06. 06. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
58	“Parkent gold chiking” MChJ	2		07. 06. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
59	“Muxandis plyus loyixa” x/k	9	2	08. 06. 2023 y	09-00	Korxona garajida
60	“Chirchiq-Oxangaron” I.T.N.V.N.M.Ye	7		09. 06. 2022 y	14-00	Parkent YHXB
61	“Zamona Rano”	7		12. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
62	“Koinot-fazo” OAJ	5		13. 06. 2023 y	09-00	Korxona garajida
63	“Sirot fayz plyus” MChJ	6		14. 06. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
64	“Parkent –farm” DUK	1		14. 06. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
65	“Diyor savdo ta’mir” MChJ	4	2	15. 06. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
66	“Anka” XSI	2		16. 06. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
67	“Ilxom oltin boshoq” fx	2		19. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
68	“Chotqol keramik servis”	4		19. 06. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
69	“Alitex Inovation” MChJ	3		20. 06. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
70	“Xamkor yangi trans” MChJ	9	1	20. 06. 2023y	11-00	Parkent YHXB
71	“Boyqozon Shokir” fx	3		21. 06. 2023y	09-00	Parkent YHXB
72	“Kumushkon taraqqiyot” invest	3		21. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
73	“Dilshod” fx	1		22. 06. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
74	“Parkent Dil-El-Bek” MChJ	2		22. 06. 2023y	14-00	Parkent YHXB
75	“Ijozat” xf	1		23. 06. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
76	“Shiddat sifat qurilish” MChJ	2		26. 06. 2023y	9-00	Parkent YHXB
77	“Xalq banki” Parkent filiali	1		27. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
78	Qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi	1		28. 06. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
79	“G‘iyosiddin savdo rivoj” XK	2		03. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
80	“Elektr nur rivoj” MChJ	2		03. 07. 2023y	11-00	Parkent YHXB
81	“Payziqori” FX	2		04. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
82	“Orzu Parkent kimyo” XK	1		04. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
83	“Irrigatsiya” bo‘limi	2		05. 07. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
84	“Oybek tasvir” MChJ	1		05. 07. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
85	“Fedad avto savdo” MChJ	5		06. 07. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
86	“Aspariddin ota” fx	1		07. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
87	“Suvoqava” IChShB	2		10. 07. 2023 y	11-00	Parkent YHXB

88	“Komol qurilish sifat” MChJ	1		11. 07. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
89	“Ablay Mirza” XK	1		12. 07. 2023y	15-00	Parkent YHXB
90	“Xursanoy plyus Dilrabo” fx	2		13. 07. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
91	“Gulbog‘ Elbek Uzumlari” fx	1		14. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
92	“Changi Muqobil” MChJ	2		17. 07. 2023 y	11-00	Parkent YHXB
93	“Yoshlar ittifoqi avto maktab” MChJ	2		18. 07. 2023 y	14-00	Parkent YHXB
94	“Boyqozon Sarvar” fx	1		19. 07. 2023 y	09-00	Parkent YHXB
95	“Tremendous” MChJ	20		20. 07. 2023 y	9-00	Parkent YHXB
96	“Almond Vorld” MChJ	2		21. 07. 2023 y	11-00	Parkent YHXB

ESLATMA: shaxsiy transport vositalari diagnostika tarmoqlarida o‘tkaziladi. Yuridik korxonalarga tegishli transport vositalari korxona garajida texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi